



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 27-dekabr

756-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kungaboqar urug‘ini yetishtiruvchilarning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrda 882-son qarori ijrosi haqida”gi 622-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kungaboqar urug‘ini yetishtiruvchilarning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrda 882-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-dekabrda 622-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kungaboqar urug‘ini yetishtiruvchilarning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrda 882-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-dekabrda 622-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-dekabrda 882-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-mayda “Iste‘mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta‘minlashga va monopoliyaga qarshi choralarning ta‘sirchanligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-145-son Farmoni bilan Vazirlar Mahkamasiga kungaboqar urug‘larining ichki bozorda yetarli hajmi mavjud bo‘lgan taqdirda, ushbu tovarlar eksportini qayta tiklash huquqi berilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarga, ularning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat‘iy nazar, 2024-yil 20-dekabrda boshlab kungaboqar urug‘larini (TIF TN kodi 1206 00 9900 ok kungaboqar, TIF TN kodi 1206 00 9100 oq chiziqlar bilan kulrang qobiqda kungaboqar) O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqishga (eksport qilishga) ruxsat berilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov va tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov